

TARJIMA JARAYONIDA ASL MATN TILI VA TARJIMA TILIDA SODIR BO'LADIGAN GRAMMATIK, LEKSIK, SEMANTIK TRANSFORMATSİYAGA UCHRASH HODISALARI VA STILISTIK VOSITALARNI TARJIMA QILISH

Omonova Shaxlo Sirojiddin qizi

Termiz davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talalabasi

shaxloomonova8@gmail.com

Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li

Termez davlat universiteti

shakhrookhramazanov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola ingliz-o'zbek tarjima jarayonida ro'y beradigan Grammatik (sintaktik va morfologik), semantik transformatsiyaga uchrash hodisalari va stilistik vositalarni tarjima qilish va ularning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Transformatsiyaga uchrash va stilistik vositalarini to'g'ri tarjima qilish tarjima jarayonida asl matn tilidan tarjima tiliga o'tkazilayotganda uning asl mazmunini saqlashda muhim kasb etadi. Maqolada asl mazmuni saqlab qolgan holda tarjimani to'g'ri amalga oshirish yechimlari taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *transformatsiya, semantik transformatsiya, morfologiya, metafora, litota*

KIRISH

Tarjimon tarjima qilish mobaynida asl matn tilidan tarjima tiliga o'tayotgan orginal matnning asl mazmunini saqlab qolish va uni transformatsiyaga uchrash hodisalarida to'g'ri tarjima berish asosiy vazifasidir. Transformatsiya o'zi nima degan savolga javob berishimiz kerak. Transformatsiya asl matn tilidan tarjima tiliga o'tkazilayotganda so'z, so'z birikmasi va yoki tovush, so'z yoki gapning qaysidir qismi o'zgarishi ammo mazmun saqlanib qolishidir. Tarjima jarayonida eng ko'p uchraydigan transformatsiya hodisalari grammatik (sintaktik va morfologik) va semantik transformatsiyadir. Grammatik transformatsiyalar ko'p uchrashi ingliz-o'zbek tillari oilalari aynan boshqa-boshqa ekanligidir, shu sababdan ko'p bunday hodisaga duch kelamiz. Semantik transformatsiya esa orginal matnning mazmunini o'zgartirib yuborishdir. Bu holatlar kamdan kam duch kelinadi. Chunki orginal matnning mazmunini o'zgartirish ko'p qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Tarjimon orginal matnni qanchalik ko'p transformatsiyaga uchratsa tarjimaning sifati shunchalik yomonlashadi. Va xuddi o'zbek tilida bor kabi ingliz tilida ham ma'no ko'chish usullari va turlari ham bor. Bu jarayonda so'zlarning badiiyiligini oshirish tarjimonning mahoratiga bog'liq. Tarjima davomida bu usullarni qo'llay olish tarjimaning sifatini ta'sirchanlik darajasini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA IZLANISHLAR METODOLOGIYASI

Maqola bo'yicha tadqiqot davomida qiyosiy adabiyot va ularning tahlili hamda badiiy tarjimaning stilistik tahlili yoritilgan. Ikki til oilasi mansub ingliz-o'zbek tarjimasida transformatsiya hodisasi va ma'no ko'chishning turlari va uning tarjima tilida badiiylikni oshirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Ushbu maqolada morfologik, sintaktik transformatsiyalar va ma'no ko'chish turlari tahlil qilingan bo'lib ular quydagilar:

So'z turkumlari transformatsiyaga uchrashi, gap bo'laklarining transformatsiyaga uchrashi, metonemiya ma'no ko'chish turi, metafora ma'no ko'chish turi, o'xshatish-qiyoslash, litota. Biz transformatsiya va ma'no ko'chish asosini tahlil qildik: tillararo grammatik farqlar muammosini ko'rib chiqdik.

MUHOKAMA

Tarjimada asosan eng ko'p uchratadigan transformatsiyamiz grammatik transformatsiya ya'ni sintaktik va morfologik jihatdan o'zgarishi. Biz tarjima qilayotgan asar yoki matnda istamasakda o'zgarishlar sodir bo'ladi. Buning asosiy sababi ingliz-o'zbek tilining umumiy til oilasi boshqa boshqadir. Ingliz tilida so'zlarjoylashuvi :

S(EGA)+V(KESIM)+S.F(IKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR)

Ammo o'zbek tilida birinchi ega keyin ikkinchi darajali bo'laklar va undan keyin kesim keladi. Va tarjimada mana shu joylashuvdagi ikkinchi darajali bo'laklarning ba'zan hatto eganing ham sintaktik jihatdan vazifasi o'zgarib ketadi. Masalan, I have a car (s+v+s.f) ammo tarjimada mening mashinam bor deb aytiladi ya'ni bu yerda ega o'z vazifasini qaratqich aniqlovchiga o'zgartirib yubordi. Bu kabi holatlar tarjimada juda ko'p uchraydi. ko'p holatda so'z turkumlari ham transformatsiyaga uchrab original matndagi vazifasini yo'qotadi. Masalan, sifat fe'lga, ot sifatga fe'l ravishdosh so'z turkumlariga transformatsiyaga uchraydi. Yana bir jihatdan ma'no ko'chish turlari ya'ni metonemiya metafora, sinekdoxa va litota kabi hodisalar tarjimaning badiiylikni oshirishga xizmat qiladi. Ingliz-o'zbek til oilalari ikki xil bo'lsada, ma'no ko'chish hodisalari deyarli farq qilmaydi. Masalan, his words were arrows that struck a chord in my heart va tarjimada biz aynan uning so'zlari yuragimga o'q kabi tegdi deb tarjima qilamiz. Bunday misollarning ko'pini keltirishimiz mumkin, va ma'no ko'chishning sinekdoxa usuli ham o'zbek tili kabi bir xil. Ya'ni sinekdoxada qismdan butun yoki butundan qismni anglatadi. Masalan, I have four mouths to feed at home. Tarjimada meni uyda to'rtta og'izlarim bor deyilishi ham mumkin ammo gap mazmuni uyda to'rtta farzand borligini ko'rsatib turadi. O'zbek tilida efimizm atamasi mavjud, bu termin asosan so'zlarni yumshatib gapirish ma'nosini ifoda etadi bu termin ingliz tilida litota deb yuritiladi. Masalan the ice-cream was not good- muzqaymoq yaxshi emasdi ya'ni aynan yomon edi emas balki uni yumshatib yaxshi emasdi deyishimiz mumki. Litota, asosan, ingliz tilida not inkor yuklamasi bilan yasaladi.

XULOSA

Tarjima jarayonida transformatsiyaga uchrash hodisasi ham, ma'no ko'chish hodisasi ham aynan tarjimaning sifatli va mazmunini saqlab qolishga, o'quvchi tafakkuriga yetib borishga yordam berishi kerak. Tarjimaning badiiyligini va tasirchanligini oshirish tarjimonning bilimiga bog'liq. Ma'no ko'chirishda ham, transformatsiyaga uchrashida ham asosiysi mazmunning saqlanib uni o'quvchilarga yetkaza berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXTTRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022):140-144
2. Aliboyeva, Nigina Alisher Qizi. "The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into uzbek language." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 77-80
3. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.
4. Aliboyeva, Nigina Alisher Qizi. "LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES 4.07 (2023): 21-25.
5. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHEROVNA. "CHILDREN'S FICTION IS ONE OF THE MOST IMPORTANT FACTORS IN THE FORMATION OF A CHILD AS A PERSONALITY." АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ Учредители: Общественная организация "Институт социальной трансформации": 28-30.